

XORAZM QAL'A DEVORLARINING SHAHAR MUDOFAASIDA TUTGAN O'RNI. "ICHAN-QAL'A" DEVORLARINING TARIXI.

Nurmetova Bikajon Anvarbek qizi

“Ichan-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari yurtimiz tarixining eng qadimgi davr moddiy madaniyat yodgorliklari hisoblanadi. Bu inshootlar o'lkamizning qadimgi tarixida harbiy soha takomillashuvi, shahar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari, qal'alar qurilishining dastlabki va keyingi bosqichlaridagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar beradi. Bu o'zgarishlar o'sha davr Xorazm aholisining yashash turmush tarziga ham sezilarli ta'sir o'tkazgan. Ushbu maqolada Xorazmning qal'a, devorlari ahamiyati va "Ichan-Qal'a" devorlari haqida qisqacha ma'lumot berilgan

***Kalit so'zlar:** Oltintepa, Baqtriya, Farg'ona, Avesto, "Ichan-Qal'a", Hazorasp, Devkesgan, Tuproqqal'a.*

THE ROLE OF KHORAZM FORT AND WALLS IN CITY DEFENSE. HISTORY OF "INCHAN-KAL'A" WALLS.

ANNOTATION

Ancient Khorezm defense structures are the oldest material culture monuments of our country's history. These structures provide information about the improvement of the military sphere, urban development, urbanization processes, changes in the initial and later stages of the construction of fortresses in the ancient history of our country. These changes had a significant impact on the lifestyle of Khorezm residents at that time. This article provides brief information about the fortress of Khorezm, the importance of its walls and the walls of "Ichan-Qal'a".

***Keywords:** Oltintepa, Baqtriya, Farg'ona, Avesto, "Ichan-Qal'a", Hazorasp, Devkesgan, Tuproqqal'a.*

Mustaqil respublikamizning ijtimoiy fanlar sohasi olimlari oldida xalqimiz tarixini, shuningdek boshqa xalqlar tarixini haqqoniy va to'laqonli o'rganish masalasi eng muhim vazifa hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1998-yil 14-iyulda bir guruh tarixchi olimlar va yetakchi jurnalistlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda tarix fani, uning bugungi ahvoli va istiqbolini chuqur tashkil etish haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bildirib, bu yo'nalishda tarixchi olimlar oldiga qator vazifalarni qo'ydi. Birinchi Prezidentimiz takidlaganlaridek: "Albatta, tarixda kechgan voqealarning ibratli tomonlarini o'rganish, shu bilan birga, ularning salbiy jihatlarini ham yahshi bilish kerak. Eng muhimi, tarixni bilgan, o'rgangan odam, kim bo'lishidan qat'i nazar, ko'p narsadan xabardor bo'ladi"

Ushbu vazifalardan eng muhimi - yangi jamiyatimizni isloh, qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, xozirgi davr talabi asosida yangicha fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, muximi, ular ongiga milliy istiqloq, Vatanga sadoqat va yurtparvarlik g'oyalarini yanada chuqurroq, singdirish va teran anglatishdan iboratdir.

Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari yurtimiz tarixining eng qadimgi davr moddiy madaniyat yodgorliklari hisoblanadi. Bu inshootlar o'lkamizning qadimgi tarixida harbiy soha takomillashuvi, shahar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari, qal'alar qurilishining dastlabki va keyingi bosqichlaridagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar beradi. Bu o'zgarishlar o'sha davr Xorazm aholisining yashash turmush tarziga ham sezilarli ta'sir o'tkazgan.

Markaziy Osiyo hududida mudofaa inshootlarining yuzaga kelishi va barpo etilishi bir tekis ketmagani ma'lum. Chunonchi, Janubiy Turkmanistondagi manzilgohlar atrofida dastlabki mudofaa devorlari eneolit davrida ko'tarilgan (Geoksyur manzilgohlari) va jez davrida ularni qurish avj olgan (Oltintepa). Baqtriya va Farg'ona vodiysi hududlarida ular bronza davrida shakllana boshlagan. Sug'd va Xorazm mintaqalariga kelganda esa, u yerda manzilgohlar va mudofaa inshootlari mil. avv. I ming yillik o'rtalaridan ma'lum bo'ldi. Shu bois K. Sabirov va G. Frank-for

tomonidan ilova qilingan xronologik tasniflar ko‘rib chiqilayotgan hududning lokal mintaqalariga nisbatan doim ham maqbul emas.

Antik mualliflar qadimgi Xorazm qal‘alari to‘g‘risida deyarli hech qanday ma‘lumot qoldirishmagan. Baqtriya bilan Sug‘d mudofaa inshootlari to‘g‘risida Aleksandr yurishlari tarixi bilan bog‘liq, mazmunan xilma-xil materialga ega bo‘lsak, olis Xorazmning faqat qadimgi davri emas, balki ilk o‘rta asrlar davri ham, to arab fathiga qadar, biz uchun deyarli butunlay qorong‘u. Biroq Xorazmning qadimgi harbiy arxitekturasini tavsiflash uchun deyarli hech qanday material bermaydigan fors bitiklarida, Avestoda va paxlaviy diniy adabiyotida, grek-lotin, xitoy va arman manbalarida ba‘zi-ba‘zida Xorazm nomi uchraydi.

1—IV asrlarda yangi istehkomlar qurilishi bilan birga, eskilari ta‘mirlandi ham. Ba‘zi hollarda avvalgi qal‘a devorlari butkul yangi devor bilan o‘rab olindi (Hazorasp, Devkesgan, Xivadagi Tuproqqal‘a va boshqalar). Boshqa holatlarda otish yo‘lagining pastki qavatiga g‘isht terildi (Kichik Qirqqizqal‘a, Oqshaxonqal‘a, Sulton Uvays tog‘idagi Govurqal‘a va boshqalar), natijada to‘g‘ridan otilgan o‘q kelib tegadigan joy pastki qavatdan tepa qavatga ko‘chdi. Bunday baquvvat poydevorli istehkomlar qurilishiga o‘tish qadimgi Xorazm harbiy istehkomlari tizimidagi ikkinchi tub burilish bo‘ldi. Istehkomlarning umumiy tarhi qanhxa davridagi kabi qolgan bo‘lsa-da, ularning xususiyati keskin o‘zgardi: poydevor baland ko‘tarildi, devorlar tik qurildi va h.k.

Bu davrda Xorazm harbiy arxitekturasida dumaloq ko‘rinishdagi istehkomlar qurilishi keskin kamaygani ko‘zga tashlanadi. I - III asrlarda dumaloq shakldagi baquvvat devorli ayrim qal‘alar o‘zining mudofaa vazifasidan mahrum bo‘ldi

“Ichan-Qal‘a” deb ataluvchi ko‘hna qal‘a eramizdan avvalgi VI - V asrlarda qurilgan. Qal‘a devorining uzunligi 2200 metr, umumiy ichki maydoni 26 gektar, ya‘ni, sharqdan g‘arbga 450, shimoldan janubga 600 metrni tashkil etadi. Shahardagi ikkala qal‘a devori ham xom loydan va ayrim joylari xom g‘ishtdan 8-10 metr balandlikda qurilgan bo‘lib, ustida soqchilar, himoyachilar va arava yurishi uchun

yo'lak, tepa qismidan o'q otish uchun maxsus teshik – shinaklar qo'yilgan. Devorning asosi 10-15 metrdan 20 metrgacha, tepasi 4-5 metr qalinlikda qurilgan.

Qadimda qal'a devorining ichkari va tashqari tomonidan qabrlar qo'yilib, mozoristonga aylantirilgan. Janubiy - Tosh darvozaning g'arb tomonidan boshlab, shimoliy - Bog'cha darvozagacha qal'a devorining tashqari tomonida, ichkaridan esa faqat janubiy tomondagina qabrlar bo'lgan, ularning aksariyati bugungi kungacha saqlanmagan. Faqat oz qismi ta'mirlanib, tarixiy obida sifatida saqlangan.

Bu qabrlarning qal'a devorida qo'yilishi otashparastlik davridan qolgan hisoblanadi. Ma'lumki, otashparastlar o'z yaqinining suyagini uyidan uzoqlashtirmagan. Suyaklarni ostadonlarga joylab uyining devori ichiga qo'yishgan.

Shahardagi har bir qal'a devorining va darvozalarning o'z tarixi, rivoyat va afsonalari ham bor. Darvozaning ichkarisida soqchilar uchun maxsus xonalar mavjud bo'lib, ular mustahkam qilib bitkazilgan. Ko'hna shahar darvozalari oldida va ichkarisida savdo rastalari, chorsular joylashgan. Darvozalar kechalari yopilib, ertalab saharda ochilgan.

Shunday qilib, antik davrda qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari san'ati Markaziy Osiyo mudofaa inshootlari san'ati darajasida bo'lgan. Bu yerda istehkomli inshootlar qurish maktabi mavjud bo'lgan, deb ta'kidlash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. -Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. G'ayratdin. Xo'janiyazov. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Mil.avv VI asrdan milodiy IV asrgacha. Toshkent "O'zbekiston"; 2007-yil.
3. Хоразм тарихи. 1-жилд. Урганч 1997-йил. 11-бет
4. Толстов С.П. Древнехорезмийские памятники в Каракалпакии (Предварительные итоги археологических работа ИИМК АН СССР и ККАССР в 1938 г.). //ВДИ. № 3. 1939 г
5. Iso Jabborov. Ko'hna xarobalar siri. Toshkent 1961-yil.